

MORTIMER ADLERNING TA'LIMGA OID FALSAFIY QARASHLARINING YANGI O'ZBEKISTON TA'LIMIDAGI KONSEPTUAL AHAMIYATI

Suyunova Noila G'ayratovna

Perfect universiteti "Gumanitar fanlar" kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: suyunova.n@perfectuniversity.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18014149>

Annotatsiya:

Mazkur tezisda O'zbekiston ta'lim tizimining mustaqillikdan keyingi rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Xususan, sobiq Sovet Ittifoqi davridan meros bo'lib qolgan ta'lim muammolari, iqtisodiy inqiroz sharoitida ta'lim tizimining moliyaviy va kadrlar bilan bog'liq qiyinchiliklari yoritiladi. 1997-yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ning milliy ta'lim tizimini shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan ta'lim va kitobxonlik sohasidagi islohotlar, "O'zbekiston-2030" strategiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar tahlil qilinadi. Tezisda ta'lim sifatini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish va tanqidiy fikrlashni shakllantirishda Mortimer Adlarning faol o'qish konsepsiyasining metodologik ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, ta'lim islohotlari, Yangi O'zbekiston, Sovet ta'limi, inson kapitali, kitobxonlik, Mortimer Adler, faol o'qish, ta'lim sifati.

Abstract

This thesis analyzes the main stages of the development of Uzbekistan's education system in the years following independence. In particular, it examines the problems inherited from the Soviet education system, as well as the financial and human resource challenges faced during the period of economic crisis. The significance of the 1997 Law "On Education" and the "National Program for Personnel Training" in shaping the national education system is highlighted. In addition, the study explores the education and reading reforms initiated under the leadership of President Shavkat Mirziyoyev, as well as the priority tasks defined within the framework of the "Uzbekistan-2030" Strategy. The thesis substantiates the methodological importance of Mortimer Adler's concept of active reading in improving the quality of education, developing human capital, and fostering critical thinking skills.

Keywords: education system, educational reforms, New Uzbekistan, Soviet education, human capital, reading culture, Mortimer Adler, active reading, quality of education.

Ta'lim muammosi har doim davlatning eng muhim asosiy muammolaridan biri sifatida jamiyatning rivojini belgilovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. O'zbekiston uchun ham ta'lim muammosi mustaqillikning ilk kunlaridanoq eng dolzarb soha sifatida islohotlarning asosiy yo'nalishi sifatida belgilab olingan. O'zbekistonning ta'lim tizimi SSSRning inqirozi va bevosita siyosati bilan shakllangan muammolar girdobida edi. Sobiq Sovet ittifoqi davridagi barcha sohalarda bo'lgani singari markazlashgan ta'lim tizimida muammolar vujudga kelgan edi. Bu muammolar ayniqsa SSSRning inqirozi bilan yaqqol namoyon bo'lib qoldi. Xususan SSSRning inqirozi bilan barcha mustaqillikka erishgan Respublikalarda xususan O'zbekistonning milliy ta'lim tizimida aniq muammolar ko'zga tashalana boshladi.

Ta'lim islohotlari O'zbekiston uchun oson kechadigan jarayon bo'lmay balki ba'zi murakkab qiyinchiliklar bilan kechdi. Sovet ittifoqi inqirozi natijasida vujudga kelgan iqtisodiy inqiroz ta'lim tizimining moliyaviy ahvolini og'irlashtirib yuborgan edi.

Jamiyatning bir sifat ko'rinishidan ikkinchi bir bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tish jarayoni ta'lim tizimi xodimlaridan yangi ko'nikmalarni talab qilgan bir jarayonda, iqtisodiy inqiroz natijasida malaka oshirish tizimining moddiy bazasi zaiflashib mazkur tizimda jiddiy kamchiliklar kuzatila boshlandi. Iqtisodiy inqiroz natijasida modernizatsiya imkoniyatlarining pasayishi, ta'lim tizimining moddiy texnik bazasi eskirib ta'lim sifatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Ta'lim tizimida kuzatilgan eng jiddiy muammo bu ta'limdan tajribali kadrlarning iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida o'z sohalarini tark etgani bo'ldi. Bu sohada jiddiy kadrlar muammosini keltirib chiqardi.

Sovet Ittifoqidan mustaqil bo'lib chiqqan davlatlar barcha sohalar qatorida ta'limda ham jiddiy muammolarga duch kelishdi. Xususan O'zbekistonda ta'lim islohoti amalga oshirilar ekan, ta'limdagi muammoalarni hal qilishda autentlikdan kelib chiqib islohotlar amalga oshirildi. Bu islohotlar milliy o'zlikni tiklash, ta'lim sifatini oshirish va zamonaviy talabalar bilan hamohang bo'lishga intildi.

O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi ta'lim tizimining asosiy jihatlari tahliliga o'tishdan oldin Sovet ta'lim tizimining asosiy jihatlari ko'rib chiqish muhim hisoblanadi. Bu tahlil sovet ta'limi to'g'risida tadqiqot olib borgan Valeriya Rubinanng xulosalari asosida olib borildi¹.

Majburiy ta'limni bitirayotgan o'quvchi bir qancha sohalarida ensiklopedik bilimlarga ega edi. Biroq, bu yondashuv ko'pincha chuqur tushunish va real hayotda amaliy qo'llashdan ko'ra, faqat nazariy bilimlarni oshirishga qaratilgan edi. O'quvchilar turli fanlarni o'rganishgan, lekin bu bilimlarni amaliy jihatdan qo'llash, tahlil qilish va innovatsion yechimlar yaratish ko'nikmalari yetarli darajada rivojlantirilmagan.

Ayni shu muammolarni o'zida jamlagan ta'lim tizimi Sovet me'rosi sifatida O'zbekiston kabi bir qancha sovet davlatlariga qoldi. O'zbekiston barcha sohalarida o'z yo'lini topish uchun avvalo sohaning huquqiy va moddiy asosini mustahkamlashga e'tibor berildi. Mustaqillikning ilk kunlaridanoq sifatli ta'limni tashkil etish uchun islohotlar olib borildi. 1997-yilda Birinchi Prezident Islom Karimov rahbarligida birinchi "Ta'lim to'g'risidagi qonun" va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"² to'g'risidagi qonun qabul qilindi. Bu qonun va dastur asosida mustaqillikning dastlabki chorak asri davomida jiddiy ta'lim islohotlari olib borildi. Bu qonunlar ta'lim islohotining asosiy konsepsiyon tayanchi sifatida ta'lim islohotlarining asosiy mazmuni, maqsadlarini belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning olib borayotgan islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim tizimi bo'lib doimiy e'tibor markazida hisoblanadi. Xususan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan eskirgan "Ta'lim to'g'risidagi" ³qonun yangi taxrirda e'lon qilinib zamon talablardan kelib chiqib muhim yo'nalishlar belgilab olindi.

¹ СОВЕТСКАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ: ПЕРЕЖИТОК ПРОШЛОГО ИЛИ ПРИМЕР ДЛЯ ПОДРАЖАНИЯ? Рубина Валерия Сергеевна DOI - 10.32743/UniPsy.2024.122.8.17995.

² <https://lex.uz/docs/-5013007>

³ https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/talim_tugrisidagi_yangi_qonun_asosiylari_haqida_qisqacha

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston-2030" strategiyasida har bir fuqaroga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish nomli asosiy yo'nalishlar doirasida ta'lim va kitobxonlik masalalari ustuvor vazifa sifatida ko'rsatilgan. Mazkur strategiya doirasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, ayniqsa, inson kapitalini rivojlantirish, zamonaviy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish hamda milliy ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

Strategiyaning ta'lim sohasiga oid asosiy maqsadlaridan biri – bolalarni maktabgacha ta'lim bilan to'liq qamrab olish, barcha davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini raqamli texnologiyalar bilan ta'minlash va boshlang'ich kompyuter savodxonligini shakllantirishdan iboratdir. Bundan tashqari, umumiy o'rta ta'limda malakali o'qituvchilar tayyorlash, ularning xorijiy davlatlarda malaka oshirishini yo'lga qo'yish orqali ta'lim sifatini oshirish ko'zda tutilgan. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olinishini 50 foizga yetkazish, PISA reytingida yuqori natijalarga erishish va Global Innovatsion Indeksda O'zbekistonni eng ilg'or 50 ta mamlakat qatoriga olib kirish strategik vazifa sifatida belgilangan.

Kitobxonlik sohasida esa davlat rahbari tomonidan tub burilish yasovchi qator tashabbuslar ilgari surilgan. Xususan, 2030 yilga borib mamlakatda faol kitobxonlar sonini 5 millionga yetkazish, mavjud kutubxonalarni kapital ta'mirlash va zamonaviy axborot-resurs markazlariga aylantirish rejalashtirilgan. Bunday sa'y-harakatlar kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishni oshirish, yosh avlodda o'qishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirish, shuningdek, tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu maqsadlarni amaliy amalga oshirishda Mortimer Adlarning faol o'qish metodi va ta'limga oid tamoyillarini tadqiq etish nazariy metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Prezident tomonidan boshlangan ta'lim va kitobxonlik sohasidagi islohotlar "Yangi O'zbekiston" taraqqiyotining ilmiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa zamonaviy bilimga ega, intellektual salohiyatli, barkamol avlodni shakllantirishga xizmat qiladigan tizimli yondashuvdir.

Olib borilayotgan ta'lim islohotlarining bugungi kundagi asosiy xususiyati shundaki bugun har qachongidan ham ta'lim tizimining moddiy texnik bazasini mustahkamlashga alohida e'tibor berilmoqda. Biroq ta'limning mummosi har doim ham zamonaviy tendensiyalar omili natijasida dolzarb bo'lib qolaveradi. Shunday ekan, O'zbekiston ta'lim tizimi rivoji uchun konseptual nazariyalarni taklif qila oladigan g'oyalarni tadqiq qilish uning milliy ta'lim tizimiga muvofiqligni tahlil qilish dolzarb bo'lib qoladi.

Zamonaviy davrga kelib O'zbekiston uchun sifatli ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, dunyoqarashi keng, doimiy o'z ustida ishlaydigan shaxslarni yetkazish hisoblandi. O'zbekiston kabi fuqarolik jamiyatini qurish va uning qadriyatlarini jamiyatda mustahkamlashning va rivojlantirishning bosh omili sifatida ta'limga e'tibor berayotgan davlat uchun ta'lim falsafasidagi eng muhim tadqiqotlarni o'rganish zaruriyat hisoblanadi.

Avvalo ta'lim islohotlarining nazariy falsafiy asoslariga qarar ekanmiz XX asr va XXI asr ta'lim falsafasida asosan pragmatizimga asoslangan progressiv ta'lim falsafasi va perenillizimga asoslangan ta'lim falsafasi vakillarini ko'rish mumkin. Ta'lim falsafasining XX asr va keyingi XXI asrdagi rivojida muhim mumtoz ta'lim nazariyotchisi va amaliyotchilaridan biri bu Mortimer

Adler hisoblanadi. Mortimer Adlarning qarashlari va uning rahbarligida olib borilgan ta'lim oid tadqiqot loyihalarining natijasi hozirgi zamonaviy G'arb va asosan Amerika ta'lim tizmining nazariy g'oyaviy tizimini tashkil etadi.

Mortimer Adlarning qarashlari bir muncha konservativ xarakterga ega bo'lsa ham uning falsafasida ta'limning maqsadi demokratik tamoyillarni mustahkamlashga qaratilgan g'oyalari bilan universal hisoblanadi. Uning "ta'limning maqsad sifatida demokratik tuzumni mustahkamlash va rivojlantirishni maqsad qilib olishi uning g'oyalarini hayotiylikini ta'minlaydi"⁴.

Uning oldingi boblarda ko'rib chiqilgan qarashlarining konseptual tahlili uning ta'lim falsafasida universal g'oyalarning ustuvorligini va insonni donishmandlikka, aqliy tafakkurga undashi bilan ajralib turadi. Uning qarashlarining eng muhim bir jihati uning falsafiy tafakkurni shakllantirish uchun falsafa ilmlariga alohida e'tibor berishi hisoblanadi. U falsafa ilmlarini ta'lim tizimidan tobora chetlashini tanqid qilib insonning tafakkuridagi "go'daklashish" fenomenini jiddiy tanqid qiladi. U shuningdek insoniyat uchun har doim qadri yo'qolmaydigan universal haqiqatlar va qadriyatlar masalasini ko'tarib mumtoz falsafiy bilimlarni qayta ijtimoiy iste'molga kiritishga harakat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. СОВЕТСКАЯ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ: ПЕРЕЖИТОК ПРОШЛОГО ИЛИ ПРИМЕР ДЛЯ ПОДРАЖАНИЯ? Рубина Валерия Сергеевна DOI - 10.32743/UniPsy.2024.122.8.17995
2. <https://lex.uz/docs/-5013007>
3. https://www.norma.uz/uz/qonunchilikda_yangi/talim_tugrisidagi_yangi_qonun_asosiyl_ari_haqida_qisqacha
4. Adler, M. J. (1982). The Paideia Proposal: An Educational Manifesto. New York, NY: Macmillan Publishing Company. P. 3.
5. Adler, M. J. (1983). Paideia Problems and Possibilities: A Consideration of Questions Raised by The Paideia Proposal NewYork: Macmillan Publishing Company. P. 22

⁴ Adler, M. J. (1982). The Paideia Proposal: An Educational Manifesto. New York, NY: Macmillan Publishing Company. P. 3.